



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

O'ZBEKISTONDA HAKAMLIK SUDLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA HAKAMLIK SUDYALARIDA BO'LISHI LOZIM BO'LGAN FAZILATLAR

Mamadaliyev Akrombek Ikrom o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti
Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish faoliyati talabasi

Annotatsiya

Demokratik tamoyillar ustuvor bo'lgan mamlakatlarda nizolarni muqobil yo'llar bilan hal qilish institutini shakllantirish va xususan hakamlik sudlarini tsahkil etish asoslarini va uni belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohadagi hozirgi islohotlar hakamlik sudlarini yangi darajaga olib chiqish, tashkil etish tartibi va mezonini isloh qilish, uning huquqiy maqomini va sudyalarning etik-estetik qoidalarini belgilash hamda hakamlik sudlarini fuqarolar va tadbirkorlarning ishonchini qozonadigan samarali muqobil institutga aylantirish uchun qaratilgan. Mazkur tezisda hakamlik sudlarini tashkil etish tartibi, shakli, turlari hamda huquqiy maqomi, amaliyotda uchrayotgan muammolarni qiyosiy tahlili, shuningdek, hakamlik sudyalari o'zida mujassamlashtirishi lozim bo'lgan fazilatlari haqida tahlil olib borilgan. Ushbu jihatlar amaliyotda bir necha tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda va qonunchilik islohotini talab etmoqda. Mazkur tezis aynan shu masalalarga bag'ishlangan.

Особенности организации арбитражных судов в Узбекистане и качества, которыми должны обладать арбитражные судьи

Аннотация

В странах, где преобладают демократические принципы, особое значение имеет формирование института альтернативного разрешения споров, в частности, разработка основ создания арбитражных судов и определяющих их критериев. Текущие реформы в этой сфере направлены на выведение арбитражных судов на новый уровень, совершенствование порядка их организации и критериев, определение их правового статуса и этико-



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

эстетических норм судей, а также превращение арбитражных судов в эффективный альтернативный институт, заслуживающий доверия граждан и предпринимателей. В данном тезисе проводится анализ порядка создания, формы, видов и правового статуса арбитражных судов, сравнительный анализ проблем, возникающих на практике, а также качеств, которыми должны обладать арбитры. Эти аспекты вызывают ряд недоразумений в практике и требуют законодательных реформ. Настоящий тезис посвящен именно этим вопросам.

The Specific Features of Establishing Arbitration Courts in Uzbekistan and the Qualities That Arbitration Judges Should Possess

Annotation

In countries where democratic principles prevail, the formation of an institution for alternative dispute resolution and, in particular, the establishment of arbitration courts and the development of criteria defining their foundations hold significant importance. The ongoing reforms in this field aim to elevate arbitration courts to a new level, improve the organization procedure and criteria, determine their legal status and ethical-aesthetic rules for arbitrators, and transform arbitration courts into an effective alternative institution that earns the trust of citizens and entrepreneurs. This thesis analyzes the procedure, forms, types, and legal status of arbitration courts, a comparative examination of practical issues encountered, as well as the qualities that arbitrators must embody. These aspects have led to several misunderstandings in practice and require legislative reform. This thesis is dedicated specifically to addressing these issues.

Hakamlik sudlari (arbitraj) qadimgi davrdan buyon tinchlik va adolatning manbai hisoblangan. Chunki ushbu sudlarning asosiy mohiyati tomonlar o‘rtasidagi nizoga yechimni o‘z davrining huquqiy qoidalari bilan emas, balki tomonlarni o‘zaro kelishuviga erishtirish bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Hakamlik sudlari to‘g‘risida” gi qonuni ushbu huquqiy institutni tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati bo‘lib, hakamlik sudlariga oid huquqiy munosabatlarni o‘z ichiga olgan. Xususan, O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq hakamlik sudlarining turlari



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

va ularni tashkil etish o‘ziga xos hisoblanib, “Hakamlik sudlari to‘g‘risidagi” qonun bilan tartibga solinadi hamda qonunda belgilangan tartibdan tashqari hollarda hakamlik sudlarini tashkil etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Hakamlik sudlarini ikki turi farqlanadi: doimiy hakamlik sudlari va vaqtinchalik hakamlik sudlari. Doimiy hakamlik sudlarining aksariyati ta’sischi tashkilotlar rahbarlarining ixtiyoriy buyruqlari orqali tashkil etiladi va ularning balansida qoladi. Hakamlik sudyasi malakasiga qo‘yiladigan talablar faqat hakamlik bitimi taraflari o‘rtasida bevosita kelishib olinishi yoki doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudi qoidalari bilan belgilangan taqdirdagina qo‘srimcha tarzda kiritilishi mumkin. Barcha boshqa talablar majburiy bo‘lib, na hakamlik muhokamasi taraflari, na hakamlik sudining o‘zi tomonidan o‘zgartirilishi mumkin emas¹. Ya’ni hakamlik sudyasiga qo‘yiladigan talablar bu hakam bo‘lish istagidagi shaxslar uchun majburiy va o‘zgarmas bo‘lsa, taraflar qanday toifadagi hakamni tanlashlari va qanday talab darajasidagi hakam bo‘lishlari ularning xohish-irodasiga asosan hal etiladi. “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq, doimiy hakamlik sudlari yuridik shaxslar yoki ularning birlashmalari (assotsiatsiya yoki uyushmlar kabi) tomonidan tashkil etiladi va ularning himoyasi ostida faoliyat yuritadi. Davlat organlari va boshqaruv organlariga hakamlik shartnomasi tomonlari bo‘lish yoki hakamlik sudlarini tashkil etish qat‘iyan taqiqilanadi². Hozirgi milliy qonunchilikda doimiy hakamlik sudlarini tashkil etish bo‘yicha boshqa cheklolvar mavjud emas. Shunga ko‘ra, doimiy hakamlik sudlari amaldagi qonunlarga muvofiq faoliyat yuritsa ham, mustaqil yuridik shaxslar sifatida tashkil etilishi yoki ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin emas.

Qonunning 7-moddasiga muvofiq, vaqtinchalik hakamlik sudi ma'lum bir nizo tomonlari tomonidan tashkil etiladi. Nizoni hal qilgandan so‘ng u o‘z faoliyatini to‘xtatadi. Hakamlik sudining raisi yoki yagona hakam jarayon boshlanishidan oldin hakamlik shartnomasi nusxasini hamda vaqtinchalik sudni tashkil etish to‘g‘risidagi xabarni tegishli hududiy adliya organiga taqdim etadi. O‘zbekiston Adliya

¹ UDK: 343.14(035.3)(575.1 A.Xakberdiyev O‘zbekistonda nizolarni hakamlik sudida hal etish jarayoni: nazariy va amaliy masalalar. Monografiya. Toshkent, TDYUU, 2022.– B.251

² O‘zbekiston Respublikasining 2006-yildagi “Hakamlik sudlari to‘g‘risidagi” Qonun <https://lex.uz/uz/docs/-1072079>



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

vazirligining 2022-yil yanvar oyidagi reystiriga ko‘ra, O‘zbekistonda 255 dan ortiq doimiy hakamlik sudlari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ulardan 160 dan ortig‘i O‘zbekiston hakamlik sudlari assotsiatsiyasi qoshida, 15 dan ortig‘i O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi qoshida hamda 80 dan ortig‘i boshqa nomlar ostida faoliyat yuritgan. Bundan tashqari, taxminan 1200 nafar hakam rasman ro‘yxatdan o‘tkazilgan.³.

Shu o'rinda professor F.X.Otaxonovning hakamlik sudlarining huquqiy maqomi va ishslash mexanizmini takomillashirishga qaratilgan takliflari quyidagicha: a) "Doimiy hakamlik sudlari nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan tashkil etiladi va ularning himoyasi ostida faoliyat yuritadi." b) "Doimiy hakamlik sudi faqat kamida yetti nafar ro'yxatdan o'tgan hakamga ega bo'lgan taqdirdagina adliya organlarining rasmiy reystriga kiritiladi⁴." Professor F.X. Otaxonovning keltirib o'tgan takliflarini tahlil qilgan holda shuni ayta olamizki, hakamlik sudini o'zining huquqiy shaxsiyatiga ega bo'limgan nodavlat muassasasi ekanligini tushunish mumkin. Ya'ni hakamlik sudini iqtisodiy korxona yoki tashkilot sifatida, faoliyati daromad orttirishga mo'ljallangan organ sifatida ko'rib chiqish kerak emas. Shu sababli hakamlik sudlarini notijorat tashkilotlari himoyasi ostida tashkil etish taklifi ilgari suriladi.

O‘zbekistonda hakamlik sudining paydo bo‘lishidan boshlab, xususan, 2007-yil 1-yanvardan kuchga kirgan “|Hakamlik sudlari to‘g‘risidagi” qonunga ko‘ra, aynan hakamlik sudyasi bo‘lish istagidagi shaxslar uchun talablar belgilab o‘tilgan, ya’ni qonunning 14-moddasiga asosan, yigirma besh yoshdan kichik bo‘lmagan, nizoning xolis hal qilinishini ta’minlashga qodir bo‘lgan, nizoning pirovard natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo‘lmagan, hakamlik bitimi taraflaridan mustaqil bo‘lgan va hakamlik sudyasi majburiyatlarini bajarishga rozilik bergen O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi hakamlik sudyasi etib saylanishi (tayinlanishi) mumkin deb mustahkamlab qo‘yilgan. Ushbu hakamlik uchun qo‘yilgan mezonlar umumiy

³ A.Xakberdiyev Nizolarni muqobil tartibda hal qilishda hakamlik sudlari va ularning turlari// Yuridik fanlar axborotnomasi. 2022. 2-son.

⁴ F.X.Otaxonov “Nizolarni muqobil hal etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari takomillashmoqda” Yurist axboronomasi. 3-son, 1-jil. 2020. B. 78.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

bo‘lib, bularning birontasining bo‘lmasligi, hakamlik sudyasi bo‘lishni inkor etadi⁵. Davlat sudlarining sudyalarini uchun meyoriy hujjat bo‘lgan “Sudyalar odob-axloq kodeksi” mavjud bo‘lib, ularning odob-axloqi va boshqa fazilatlari kodeks orqali tartibga solinadi. Xuddi shunday, hakamlik sudyalariga qo‘yiladigan talablar bilan bir qatorda hakamlik sudyasida bo‘lishi lozim bo‘lgan etik-estetik xususiyatlarni tahlil qilib o‘tishimiz joiz va buni qonunchilik normalari bilan belgilashni tavsiya qilish lozim. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, Rim advokatlari sud qarorlarining shubhasizligi haqidagi umumiy g‘oyani qo‘llab-quvvatlash maqsadida hakamda bo‘lishi kerak bo‘lgan shaxsiy fazilatlar to‘plamini batafsil asoslab bergenlar. Rim huquqi normalariga ko‘ra, hakamlik sudyasi erkin, jismonan sog‘lom, rivojlangan intellektga ega, hayotiy tajribaga ega, axloqsiz xatti-harakatlar bilan bulg‘anmagan, qonunga xi洛f ishlar bilan shug‘ullanmagan, hamda ishning muayyan natijasidan manfaatdor bo‘lмаган shaxs bo‘lishi lozim.

Rim huquqshunoslarining fikriga ko‘ra, nizoda vositachilik qilish uchun nomzod sog‘lom bo‘lishi, rivojlangan tafakkur va intellektga ega bo‘lishi kerak, shunda u tomonlarni tinglab, ishning barcha jihatlarini har tomonlama baholab, qonuniy va adolatli qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pomponiy ta’kidlaganidek: “Hakam sifatida telba yoki kar yoki soqov shaxsni tanlash mumkin emas.”⁶ Huquqshunoslardan hakamning hayotiy tajribaga ega bo‘lishi, harakatlarining oqibatlarini aniq tushunishi va shu sababli o‘z qaror hamda harakatlari uchun javobgar bo‘lishi zarurligini ta’kidlaganlar. Intellektual yetuklik ijtimoiylashuv jarayonida, ma’lum vaqt davomida shakllanadi. Shu bois Kalistrat shunday degan: “Agar shaxs 20 yoshga to‘lмаган bo‘lsa, u suda bo‘lishga majbur emas, shuningdek, hech kim 20 yoshga to‘lмаган shaxsni kelishuv orqali sudyaga aylantira olmaydi... Agar shaxs 20 yoshdan katta, lekin 25 yoshdan kichik bo‘lib, sudyalik vazifalarini o‘ylamay qabul qilgan bo‘lsa, unga yordam ko‘rsatilishi kerak”⁷. Hakam mutlaqo xolis bo‘lishi lozim. Shu sababli, nomzodning ma’lum nizoning natijasiga qiziqish bildirishi uning hakamlik lavozimiga tayinlanishiga

⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2006-yildagi “Hakamlik sudlari to‘g‘risidagi” Qonun <https://lex.uz/uz/docs/-1072079>

⁶ Дигесты Юстиниана. С. 539.

⁷ Дигесты Юстиниана. С. 570



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

to'sqinlik qilgan. Martsianning fikricha: "Agar kimdir o'z nizosi bo'yicha hakamlik sudyasi etib tayinlansa, u qaror qabul qila olmaydi, chunki u o'ziga buyruq berar va o'zidan biror narsani talab qilishni taqiqlar edi, lekin hech kim o'ziga buyruq bera olmaydi yoki o'ziga biror narsani taqiqlay olmaydi.⁸"

Yangi davrda Rossiyada ayrim rus milatida bo'limgan xalqlari uchun hakamlik sudlari tashkil etilgan va natijada sudlarda tarjimonlarning yetishmovchiligi va sudyalar tomonidan milliy qonunlar hamda urf-odatlarning yetarlicha bilmasligi sababli muammolari yuzaga kelgan. Chunki nizolar aynan shu milliy qonunlar va urf-odatlarga asoslangan holda ko'rib chiqilishi lozim edi. Bundan kelib chiqadiki, hakamlik sudyalari sohaga doir bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, etnik va diniy bilimlar ega bo'lishi ham talab etilgan. Bu esa tomonlarning nizolarini to'liq va xolisona tushunishga va adolatli yechim berishga yordam bergan.

Hakamlik sudlarini tashkil etish tartibidagi ayrim muammolar hozirgi kundagi mavjud hakamlik sudlarining faoliyatiga to'sqinlik qilmoqda. Chunki hakamlik sudlarining huquqiy maqomini va tashkil etish tartibiga o'zgartirish kirtish lozim. Xususan, "Hakamlik sudlari to'g'risidagi" qonunning 3-moddasi 3-bandiga o'zgartirish kiritishni taklif qilaman. Ya'ni doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudining nizomi — hakamlik sudini tashkil etgan "**yuridik shaxs**" jumlasini "**nodavlat notijorat tashkilotlari**" jumlasiga o'zgartirishni taklif qilaman.

Shuningdek, "**Hakamlik sudyalarining odob-axloq kodeksi**" ni ishlab chiqishni, kodeksda sudyalarning odob-axloq normalari, uni buzish oqibatlari, yurish-turish qoidalari, har bir suda o'zida mujassamlashitirishi lozim bo'lgan iqtidor va fazilatlari qat'iy belgilash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Xakberdiyev O'zbekistonda nizolarni hakamlik sudida hal etish jarayoni: nazariy va amaliy masalalar. Monografiya. Toshkent, TDYU, UDK: 343.14(035.3)(575.1 , 2022.– B.251
2. Nizolarni muqobil hal etish usullari / Darslik. Hammualliflikda. – Toshkent: TDYU, 2024. – 338 bet. Mualliflar: M.M. Mamasiddiqov, yu.f.d. (DSc), professor

⁸ Дигесты Юстиниана. С. 539.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

– I, II, III, IV boblar; A.A. Xakberdiyev, yu.f.d (DSc), dotsent – V, VI, VII, VIII, IX boblar, glossariy, testlar

3. F.X.Otaxonov “Nizolarni muqobil hal etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari takomillashmoqda” Yurist axboronomasi. 3-son, 1-jil. 2020. B.78
4. Asyanov Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasining “Hakamlik sudlari to‘g‘risidagi” Qonuniga sharh” <https://nrm.uz>
5. Морозов М.Э., Шилов М.Г. Правовые основы третейского разбирательства. - Новосибирск, 2002. С. 15.
6. Дигесты Юстиниана. С. 539.